



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI




No9  
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 60 sahifa,  
2-sentyabr, 2025-yil.

## BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo‘yicha  
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

|                                                                                                                                                                               |    |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Maktabgacha ta'lim tashkiloti innovatsion faoliyatini rivojlantirish jarayoni.....                                                                                            | 14 |
| <a href="#">Ibragimova Gulsanam Nematovna</a>                                                                                                                                 |    |
| Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim metodikasida qo'llanilishi va o'qituvchi kompetentligiga ta'siri .....                                                            | 22 |
| <a href="#">Abduyev Sheroz</a>                                                                                                                                                |    |
| Boshlang'ich ta'limda "tabiatshunoslik" fanini raqamli platformalar orqali<br>o'qitish metodikasini takomillashtirish: 5e modeli asosida dizayn, baholash va joriy etish..... | 25 |
| <a href="#">Ahmadaliyev Shohruh Bahromjon o'g'li</a>                                                                                                                          |    |
| Ingliz va rus leksikografiyasida o'zbek milliy taom nomlarining lingvistik tahlili .....                                                                                      | 30 |
| <a href="#">Bobojonova Zarina Rashidovna</a>                                                                                                                                  |    |
| Rahbarlarda til bilish darajasi va hissiy intellekt (eq): o'zaro bog'liqlikni o'rganish .....                                                                                 | 34 |
| <a href="#">Isaqlulova Baxtigul Xo'jamovna</a>                                                                                                                                |    |
| Frazeologizmlarni o'rgatishda matn asosida integratsiyalashgan dars modeli:<br>xorijiy til o'rganuvchilar tajribasi .....                                                     | 38 |
| <a href="#">Jumayeva Sadbarg Mirolimovna</a>                                                                                                                                  |    |
| O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning<br>o'ziga xos xususiyatlari: rivojlangan davlatlar tajribasi tahlili .....              | 42 |
| <a href="#">Karimova Moxichehra Rixsibayevna</a>                                                                                                                              |    |
| Rus va ingliz tillarida sharqona realiyalarning leksik-semantik tasnifi .....                                                                                                 | 46 |
| <a href="#">Kulmamatova Aziza Do'stmamat qizi</a>                                                                                                                             |    |
| TRIZ metodikasi asosida texnokratik bolalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish .....                                                                                    | 50 |
| <a href="#">Orifjonova Mavludaxon Abduqaxxor qizi</a>                                                                                                                         |    |
| Raqamli ta'lim muhitida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish.....                                                                                                       | 53 |
| <a href="#">Raximberganova Munajat Muzaffar qizi</a>                                                                                                                          |    |
| Structure of Social Conflict and Stages of its Development .....                                                                                                              | 57 |
| <a href="#">Zaynutdinova Shahnoza Yuldashevna</a>                                                                                                                             |    |





# RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA PEDAGOGIK KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH

Raximberganova Munajat Muzaffar qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti  
"Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasida stajyor-o'qituvchisi



**Annotatsiya:** Mazkur maqolada raqamli ta'lim muhitining pedagogik jarayonga ta'siri hamda o'qituvchilarning pedagogik kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar ta'lim tizimiga chuqur kirib kelgan bir paytda, pedagoglarning metodik yondashuvlari, raqamli vositalardan samarali foydalanish ko'nikmalari va talabalarning individual ehtiyojlariga mos ta'limni tashkil etish qobiliyatlari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari o'qituvchilardan nafaqat texnik ko'nikmalarni, balki didaktik, kommunikativ va reflektiv kompetensiyalarni ham chuqur egallashni talab qilmoqda. Maqola pedagogik faoliyatda raqamli transformatsiyaning zaruriyati va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan strategik yondashuvlarni ilmiy asosda ko'rib chiqadi. Natijalari ta'lim muhitini modernizatsiya qilish va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Raqamli ta'lim muhiti, pedagogik kompetensiya, raqamli savodxonlik, ta'lim texnologiyalari, o'qituvchi malakasi, interaktiv metodlar, ekologik ta'lim, kasbiy rivojlanish, innovatsion pedagogika.

**Abstract:** This article analyzes the impact of the digital education environment on the pedagogical process and the formation and development of pedagogical competencies of teachers. At a time when digital technology has deepened into the educational system, the methodological approaches of educators, the skills of effective use of digital tools and the ability to organize education in accordance with the individual needs of students are gaining importance.

Modern educational technologies require teachers to deeply acquire not only technical skills, but also didactic, communicative and reflective competencies. The article examines on a scientific basis the need for digital transformation in pedagogical activity and strategic approaches aimed at improving its effectiveness. The results serve to modernize the educational environment and support the professional development of teachers.

**Key words:** digital learning environment, pedagogical competence, digital literacy, educational technologies, teacher qualification, interactive teaching methods, environmental education, professional development, innovative pedagogy.

**Аннотация:** В данной статье анализируется влияние цифровой образовательной среды на педагогический процесс, а также вопросы формирования и развития педагогических компетенций учителей. В то время как цифровые технологии глубоко проникли в систему образования, методические подходы педагогов, навыки эффективного использования цифровых инструментов и способность организовывать обучение в соответствии с индивидуальными потребностями учащихся приобретают все большее значение.

Современные образовательные технологии требуют от педагогов глубокого овладения не только техническими навыками, но и дидактическими, коммуникативными и рефлексивными компетенциями. В статье рассматривается необходимость цифровой трансформации в педагогической деятельности и стратегические подходы к повышению ее эффективности на научной основе. Результаты служат для модернизации образовательной среды и поддержки профессионального развития учителей.

**Ключевые слова:** цифровая образовательная среда, педагогическая компетентность, цифровой грамотности, образовательные технологии, квалификации педагога, интерактивных методов обучения, экологическое образование, профессиональное развитие, инновационная педагогика.

## KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimi raqamli texnologiyalar bilan uzviy bog'liq holda rivojlanmoqda. Axborot-kommunikatsiya vositalarining keng qo'llanilishi pedagogik jarayonni takomillashtirish, talabalarning bilim olish motivatsiyasini oshirish va o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini yangilash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, raqamli ta'lim muhiti sharoitida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish dolzarb masalaga aylangan, chunki

bu kompetensiyalar o'qituvchining ta'lim sifatini ta'minlashdagi asosiy omillardan biridir. Ta'limning raqamli formatga o'tishi nafaqat texnik vositalardan foydalanishni, balki metodik yondashuvlarni ham tubdan o'zgartirishni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik kompetensiyalarni raqamli muhitga moslashtirish, ularni takomillashtirish va amaliyotda qo'llash bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli ta'lim muhiti – bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilgan o'quv makoni bo'lib, unda o'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqot, bilim berish va bilim olish jarayoni virtual platformalar, elektron resurslar, interaktiv vositalar orqali amalga oshiriladi. Shu muhitda pedagogik faoliyatning samaradorligi o'qituvchining raqamli kompetensiyalariga, metodik yondashuvlariga va innovatsion fikrlashiga bog'liq bo'ladi.

Raqamli muhitda o'qituvchining bilim berish, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish va shaxsiy rivojlanishga xizmat qiluvchi faoliyati qanday o'zgaradi, qanday yangicha yondashuvlar paydo bo'ladi.

Maqolaning asosiy maqsadi raqamli ta'lim muhiti sharoitida pedagogik faoliyatning mazmuni, shakllari va metodlarini tahlil qilish hamda ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-metodik yondashuvlarni aniqlashdan iborat. Mazkur maqsad orqali zamonaviy ta'lim jarayonida o'qituvchining raqamli kompetensiyasini rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi innovatsion metodlarni aniqlash va ularni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlari o'rganiladi.

Belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

1. Raqamli ta'lim muhiti tushunchasini nazariy jihatdan asoslash, uning tarkibiy qismlari va pedagogik jarayonga ta'sirini aniqlash.
2. Pedagogik faoliyatning raqamli muhitdagi o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish, o'qituvchining roli va funksiyalarini zamonaviy sharoitda qayta ko'rib chiqish.
3. Raqamli vositalar asosida ta'lim metodlarini tasniflash, ularning afzalliklari va kamchiliklarini baholash.
4. Raqamli muhitda ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqish, ilg'or tajribalarni umumlashtirish.
5. Ilmiy-nazariy va amaliy manbalarni tahlil qilish orqali maqola mavzusiga oid xulosalar chiqarish va istiqbolli yo'nalishlarni belgilash.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot tashkilotlarida o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish sharoitida o'zaro hamkorlikdagi "o'qituvchi-talaba" axborot almashish jarayonlarini takomillashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga (AKT) asoslangan ta'lim maqsadlari bo'yicha samarali o'zaro qayta aloqani ta'minlaydigan interaktiv elektron-ta'lim resurslarini mazmunan rivojlantirish bo'yicha (Moodle, Shamilo, Sakai, Dokeos Oren Yelms, eFront, ILIAS, va x.k.) xalqaro ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Suber Universitu (Janubiy Koreya) Rinseton Universitu (AQSh), The Oren Universitu (Buyuk Britaniya) larida raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga keng tatbiq etish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

P.Gilsterning fikricha raqamli ta'lim muhitida kompetensiya inson faoliyatidagi ijtimoiy kommunikativ jihatlariga urg'u beradi.

Evropa Ittifoqi ta'lim qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan pedagoglarning raqamli kompetensiyasi (Digital Competence of Educators) profilida oltita yo'nalishlar belgilab berilgan

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga asosan mamlakatimizda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning ta'lim, ishlab chiqarish sohalariga kirib borishi kadrlar tayyorlash tizimini zamonaviy talablar asosida takomillashtirishni talab etmoqda.

Raqamli ta'lim muhitining jadal rivojlanishi zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Maqolada asosiy masala raqamli ta'lim sharoitida pedagogik kompetensiyalarni samarali shakllantirish va rivojlantirish zaruratidir. Ta'lim jarayonining raqamlashtirilishi o'qituvchilardan nafaqat texnologik vositalardan foydalanishni, balki ularni didaktik jihatdan to'g'ri qo'llashni ham talab qilmoqda. Shu bois, pedagogik kompetensiyaning tarkibiy qismlarini raqamli kontekstda qayta ko'rib chiqish, ularni amaliyotga tatbiq etish va o'quvchilarning faolligini oshirishga xizmat qiluvchi metodik strategiyalarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy muammo sifatida ko'riladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada raqamli ta'lim muhitida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishga oid muammolarni aniqlash, tahlil qilish va echim taklif etish maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Bu yondashuv tadqiqotning nazariy, empirik va amaliy bosqichlarini o'z ichiga oladi. Dastlab, raqamli ta'lim va pedagogik



kompetensiya tushunchalariga oid ilmiy manbalar tahlil qilinib, tadqiqotning nazariy asoslari belgilandi. Keyingi bosqichda pedagoglar orasida so'rovnoma, intervyular va kuzatuvlar orqali ularning raqamli kompetensiyalar darajasi, metodik tayyorgarligi hamda amaliy faoliyati o'rganildi. Olingan ma'lumotlar statistik jihatdan tahlil qilinib, mavjud muammolar aniqlashtirildi. Raqamli ta'lim muhitida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan metodik tavsiyalar va amaliy ko'rsatmalar ishlab chiqildi. Bu tavsiyalar pedagoglarning kasbiy rivojlanishiga, ta'lim sifati va talabalarning faolligini oshirishga xizmat qiladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Pedagogik kompetensiya – bu o'qituvchining kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlar majmuasidir. Raqamli ta'lim muhitida bu kompetensiyalar quyidagi yo'nalishlarda yangicha mazmun kasb etadi: texnologik savodxonlik, didaktik qo'llash ko'nikmasi, interaktiv vositalardan foydalanish va ekologik ta'limni raqamli muhitga integratsiyalash. Ayniqsa, ekologik mazmundagi ta'limni raqamli muhitda samarali tashkil etish uchun metodik yondashuvlar va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'limning hozirgi bosqichida ishning sifati, maqsadi va eng yaxshi natijalarini oshirish uchun o'qituvchi kompetensiyalarning rivojlanish darajasiga e'tibor qaratishi kerak. Pedagogik malakasini oshirishdan tashqari, pedagogik mahoratini tegishli darajada saqlash va rivojlantirishda samarali pedagogik o'z-o'zini takomillashtirish, o'z-o'zini tarbiyalash, zamonaviy pedagogik tajribani o'rganish bo'yicha mustaqil uslubiy ishlar muhim rol o'ynaydi. Ko'pgina mutaxassislar kompetensiya turlari bilan bir qatorda o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi mezonlarini qayd etadilar: umumiy madaniy, kommunikativ, shaxsiy, umumiy kasbiy va o'z-o'zini tarbiyalash.

Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni qo'llash sharoitida o'qitishning faol va interfaol shakl va usullarining roli yanada ortadi. Raqamlashtirish jarayoni o'quv faoliyatini tashkil etish uchun sifat jihatidan yangi imkoniyatlarni ochib beradi, shuningdek, tubdan yangi ta'lim ehtiyojlarini shakllantiradi. Bunday sharoitda uning didaktik salohiyati jihatidan turli texnologiyalar hamda o'qitish metodlarining farqlanishi yanada ortib boradi. Ma'ruza mashg'uloti kabi uzoq muddatli, faoliyat tuzilishiga ko'ra bir xil bo'lgan o'quv-tarbiyaviy ishlarining "passiv" shakllarining roli sezilarli darajada kamayadi. Aksincha, talabalarning o'z faoliyati, jamoaviy ish, interfaol muloqot, guruh va individual aks ettirish, murakkab tuzilishga ega bo'lgan va talabalarning loyiha faoliyati kabi ma'lum bir ichki ssenariyga asoslangan pedagogik texnologiyalarning roli, barcha muqobil variantlarda, o'yinni o'rganish texnologiyalari, guruh bahslari va munozaralar, ishni hal qilish va boshqalar ortib bormoqda. Ushbu texnologiyalarning barchasi talabaga raqamli jamiyatda zarur bo'lgan ijtimoiy vakolatlar majmuini shakllantirishga imkon beradi. Talabalarning raqamli ta'lim muhitida pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida didaktika ta'lim jarayonini va o'qitishning ob'ekti bo'lib, raqamli iqtisodiyot va raqamli jamiyatning talablariga javob beruvchi, raqamli avlodning muhim ta'limiy xususiyatlarini e'tiborga oluvchi, real maqsadlarga erishishga qaratilgan o'qitishning raqamli texnologiyalari va vositalaridan foydalangan holda, amalga oshiriladigan ta'lim jarayoni sifatida e'tirof etiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'qituvchilarning texnologik savodxonligi va didaktik qo'llash ko'nikmalari o'rtacha darajada bo'lsa-da, interaktiv vositalardan foydalanish va ekologik ta'limni raqamli muhitga integratsiyalash bo'yicha ko'nikmalar sustligini aniqlangan. Bu holat raqamli ta'lim sifati oshirish uchun metodik yondashuvlarni takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

O'rganish natijasida quyidagi tavsiyalar keltirib o'tishimiz mumkin:

1. Pedagoglar uchun raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus o'quv kurslarini tashkil etish.
  - Kurslar texnologik savodxonlik, interaktiv metodlar va ekologik ta'lim integratsiyasiga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.
2. Ta'lim muassasalarida raqamli metodik qo'llanmalar va interaktiv platformalardan foydalanish bo'yicha amaliy seminarlar o'tkazish.
  - O'qituvchilarning tajriba almashuvi va metodik yondashuvlarni sinovdan o'tkazish imkonini yaratadi.
3. Pedagogik kompetensiyalarni baholash uchun raqamli diagnostika vositalarini joriy etish.
  - Bu vositalar orqali o'qituvchilarning raqamli tayyorgarlik darajasi muntazam monitoring qilinadi.
4. Ekologik ta'limni raqamli muhitda integratsiyalash bo'yicha ilmiy-metodik tadqiqotlarni kengaytirish.
  - Bu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar ta'lim mazmunini boyitadi va o'quvchilarning ekologik ongini shakllantirishga xizmat qiladi.



Maqola pedagoglarning raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan o'qitish metodlarini qo'llash borasidagi zaruriy yangi bilim, ko'nikma va malakalarni hamda kompetensiyalarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni.
2. Abduqodirov A.A. Bo'lajak muhandis-pedagoglarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid kompetentligi // "Pedagogning shaxsiy va kasbiy axborot maydonini loyihalashda axborot kommunikatsiya texnologiyalariga oid kompetensiyalar" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materialari. – T.: TDPU, 2015.
3. Emelyanova O. A. Ta'limda bulutli texnologiyalardan foydalanish // Yosh olim. - 2014. - № 3. - S. 907-909.
4. Кирякова А.В, Олховая Т.А., Михайлова Н.В., Запорожко В.В. Интернет-технологии на базе ЛМС Моодле в компетентностно-ориентированном образовании: учебно-методическое пособие / А.В. Кирякова, Т.А. Олховая, Н.В. Михайлова, В.В. Запорожко; Оренбургский гос. ун-т. – Оренбург: ОГУ 2011
5. Вербицкий А.А. Личностный и компетентностный подходы в образовании: проблемы интеграции / А.А. Вербицкий. – М.: Логос, 2009. – 339.



- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №9**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.